

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И ГУМАНИТАРНЫЕ ПРОЕКТЫ КАК СРЕДСТВО КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ ТУРЦИИ

Джаппаров Шухрат Гаппарович

Исследователь Ташкентского государственного
университета востоковедения

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18638595>

Аннотация. Данная диссертация посвящена изучению культурной дипломатии Турции, в основном анализируя практику использования различных видов дипломатии во внешней политике страны. Действительно, в современной глобальной политической обстановке культурная дипломатия рассматривается как мощный инструмент международного диалога, доверия и стабильности. В этом направлении Турция не только расширяет свою сферу влияния посредством продвижения языка, культурных центров, телесериалов и СМИ, но и наращивает свое влияние на международной арене через культуру. Кроме того, культурная дипломатия является ключевым элементом мягкой силы страны, которая служит развитию дружбы, культурного обмена и взаимопонимания между народами. Благодаря этому страна имеет возможность представить свою культуру, историю и ценности международному сообществу, одновременно укрепляя свои позиции на мировой арене.

Ключевые слова: Турция, дипломатия, TIKa, Юнус Эмре, турецкие стипендии.

TA'LIM VA GUMANITAR LOYIHALAR TURKIYA MADANIY DIPLOMATIYASINING VOSITASI SIFATIDA

Japparov Shuhrat Gapparovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya. Ushbu tezis Turkiyaning madaniy diplomatiyasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan mamlakatning tashqi siyostida diplomatiya turlaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilingan. Darhaqiqat, bugungi global siyosiy muhitda madaniy diplomatiya — xalqaro muloqot, ishonch va barqarorlikni ta'minlovchi kuchli vosita sifatida qaralmoqda. Turkiya bu yo'nalishda til targ'iboti, madaniyat markazlari, seriallar va ommaviy axborot vositalari orqali nafaqat o'z ta'sir doirasini kengaytirmoqda, balki madaniyat orqali xalqaro maydonda nufuzini yanada oshirmoqda. Qolaversa, madaniy diplomatiya mamlakat yumshoq kuchining asosiy elementi bo'lib, u millatlar o'rtasida do'stlik, madaniy almashinuv va o'zaro anglashuvni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu orqali mamlakat o'z madaniyatini, tarixini va qadriyatlarini xalqaro jamiyatga tanitish, shu bilan birga, global maydonda o'z mavqeini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Turkiya, diplomatiya, TIKa, Yunus Emre, Turkiya buruslari.

EDUCATION AND HUMANITARIAN PROJECTS AS A MEANS OF CULTURAL DIPLOMACY OF TURKEY

Japparov Shuhrat Gapparovich

Researcher of Tashkent State Oriental Studies University

Annotation. This thesis is devoted to the study of Turkey's cultural diplomacy, which mainly analyzes the practice of using types of diplomacy in the country's foreign policy. Indeed, in today's global political environment, cultural diplomacy is considered a powerful tool for international dialogue, trust and stability. In this direction, Turkey is not only expanding its

sphere of influence through language promotion, cultural centers, TV series and the media, but also further increasing its influence in the international arena through culture. In addition, cultural diplomacy is a key element of the country's soft power, which serves to develop friendship, cultural exchange and mutual understanding between nations. Through this, the country has the opportunity to introduce its culture, history and values to the international community, while strengthening its position in the global arena.

Keywords: Turkey, diplomacy, TIKA, Yunus Emre, Turkish scholarships.

Kirish

Madaniy diplomatiya ko'pchilikni e'tiborida bo'lganligi, unga bo'lgan qiziqish boshqa davlatlarda bo'lganligi kabi Turkiyada ham keng ta'sirga egadir. Turkiyaning madaniy diplomatiyasi Usmonli imperiyasining boy tarixiy va madaniy merosidan tortib Otaturkning modernizatsiya islohotlarigacha keng doirada shakllandi. Madaniy diplomatiya Turkiyaga "yumshoq kuch"dan foydalangan holda xalqaro maydonda samarali rol o'ynash imkonini berdi. Yunus Emre instituti va TIKA kabi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan muassasalar bu diplomatik sa'y-harakatlarning asosiy tashuvchisi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Turkiyning madaniy diplomatiyasini tayanchlaridan biri Yunus Emre instituti xisoblanib, u xorijda turk tilini o'rgatish, turk madaniyati va san'atini targ'ib qilish kabi mavzularga e'tibor qaratgan bo'lsa, keying asosiy tayanch TIKA sanaladi. TIKA asosan chet elda taraqqiyot loyihalari va gumanitar yordam ishlarini olib boradi. Turkiyaning ichki va tashqi siyosati madaniy diplomatiya harakatlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turkiya universitetlari, ayniqsa, Germaniya, Fransiya va Niderlandiya kabi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kampus va tadqiqot markazlari tashkil etish va talabalar almashinuv dasturlari va qo'shma loyihalar orqali Turkiya-Yevropa Ittifoqi aloqalarini mustahkamlamoqda. Bu doirada Turkiya, madaniy diplomatiya vositalaridan samarali foydalanib, munosabatlarda barqarorlikni rivojlantirish va o'zaro tushunishni oshirishni maqsad qilgan. Turkiyaning Osiyo va Amerika mamalakatlari bilan madaniy diplomatiya faoliyatiga tarixiy, iqtisodiy aloqalar va geosiyosiy dinamika ham xuddi shunday ta'sir ko'rsatmoqda.

Turkiya ham katta tarixga ega, madaniy jihatlari ham yorqin darajada ekanligi madaniy diplomatiya borasida yetarlicha ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini taqdim etadi. Hozirgi kunda esa Turkiyada madaniy sohada qilinayotgan ishlarning ko'lami ancha yuqori darajada hisoblanadi. Masalan turizm sohasi Turkiya madaniy diplomatiyasida birinchilar qatorida turadi[1].

Asosiy qism

Madaniy diplomatiya Turkiyaning tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. U yumshoq kuchni mustahkamlash, ijobiy milliy imijni yaratish va dunyoning turli mintaqalarida Turkiyaning strategik ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. G'arb va Sharq chorrahasida joylashgan Turkiya o'zining boy tarixiy-madaniy merosidan foydalanib, zo'ravonliksiz usullar orqali xalqaro ta'sir doirasini kengaytiradi. Turkiya madaniy diplomatiyasining asosiy maqsadlaridan biri yumshoq kuchni kuchaytirishdir[2].

Shu ma'noda, Turkiya dunyo miqyosida o'zining tili, tarixi va madaniyatini targ'ib etish orqali ijobiy imij yaratishga va do'stona aloqalar o'rnatishga intiladi. Turkiyaning madaniy diplomatiyasi shuningdek, geosiyosiy manfaatlarga xizmat qiladi. Markaziy Osiyoda umumturkiy ildizlar asosida birdamlik targ'ib qilinsa, Bolqon mintaqasida esa umumiy islomiy-usmonli merosi ta'kidlanadi[3]. Boshqa mintaqalarda madaniy diplomatiyaning ta'sir ko'rsata

olishi uchun Turkiyada yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalana olayotganligi uchun ham boshqalarning Turkiyaga qiziqishi katta hisoblanadi. Bundan tashqari, madaniy diplomatiya milliy imij va brend yaratish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro maydonda TRT World va Anadolu Agency kabi ommaviy axborot vositalari orqali Turkiyaning nuqtai nazari va xalqaro voqealarga munosabati targ'ib qilinadi[4].

Turkiyaning xalqaro axborot kanallari, jumladan TRT World, ingliz tilida efirga uzatiladi va global auditoriyaga yo'naltirilgan. Bu orqali Turkiya o'z pozitsiyasini tushuntiradi va xorijiy auditoriyani o'z madaniyati bilan tanishtiradi. OAV orqali boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda teleko'rsatuvlar, san'at ko'rsatuvlari, musobaqalar yoki loyihalar tashkil etiladi. Bu xalqaro do'stlik va tushunishni kuchaytiradi. Albatta ommaviy axborot vositalari barcha yangiliklarni tez tarqatishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Madaniy xilma-xillikni ham boshqalarga tezkor namoyon etish aynan kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Madaniy diplomatiya Turkiya uchun xorijdagi turk diasporasi bilan aloqalarni mustahkamlash vositasidir. Chet ellardagi turklar va ularning qarindoshlari bilan ishlash boshqarmasi stipendiyalar va madaniy dasturlar orqali bu yo'nalishda faoliyat yuritadi[5].

Turkiya ko'plab sivilizatsiyalarga beshik bo'lgan, qadimiy tamaddunlarning an'analari va madaniyatini meros qilib olgan, o'ziga xos madaniyatini yaratgan va shu yo'nalishda boshqa mamlakatlar va xalqlarga o'z hissasini qo'shgan bir davlatdir. Bu boy madaniyat va jozibali geografik joylashuv boshqalarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Biroq qiziqish uyg'otish uchun avvalo xabardorlik zarur.

Bugungi kunda Turkiya xorijiy sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan mamlakatlardan biridir. Aslida, targ'ibot faoliyatlari o'zaro muloqotni osonlashtirish, noto'g'ri qarashlarni yo'qotish, aniq ma'lumot berish, ijobiy obraz yaratish hamda xabardorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biz madaniy aloqalar davlatlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlash, qo'shma harakatlar uchun mos platformalar yaratish, yangi tarmoqlarni shakllantirish orqali xalq diplomatiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirishida muhim rol o'ynashiga ishonamiz. Avval faqat turizm bilan cheklangan "targ'ibot" tushunchasi bugungi kunda mutlaqo boshqa shakl va ko'lam kasb etgan.

Ichki siyosatdan tortib tashqi siyosatgacha, iqtisod va savdodan madaniyatgacha, ijtimoiy taraqqiyot va demografik o'zgarishlardan ta'limgacha, turizm, madaniy xilma-xillik va intellektual hayot boyligigacha bo'lgan keng doirani qamrab olgan ko'p qirrali targ'ibot zarurati — bu, bir tomondan, mamlakatimizning o'ziga xos sharoitlaridan, ikkinchi tomondan esa global omillarning ustuvorligidan kelib chiqmoqda. Bugungi kunda boshqa davlatlarda millionlab fuqarolarimiz, turkiy xalqlarga mansub kishilar, shuningdek, Turkiyaga yaqinlik his qiladigan jamiyatlar yashaydi. Shu sababli mamlakatimiz madaniyatini targ'ib qilish faqat xorijliklarga emas, balki chet elda yashovchi turk kelib chiqishli shaxslar va ularning hamjamiyatlariga ham qaratilgan. Targ'ibot faoliyatining asosiy maqsadi – turli tadbirlar orqali dunyoga mamlakatimizga xos bo'lgan qadriyatlar, tarix, til, adabiyot, arxeologik boyliklar, ilmiy yutuqlar, san'at, me'morchilik, oshxona, an'analar, e'tiqodlar, ibratli shaxslar, sport kabi jihatlarni tanishtirishdan iborat. Bu boradagi yondashuvimiz — madaniyat va san'atning universal tilidan foydalanish hamda odamlar ongida unutilmas taassurot qoldiradigan faoliyatlarni amalga oshirishdir.

Shu ma'noda, Tashqi ishlar vazirligi boshqa davlatlardagi keng ommani qamrab oluvchi ko'plab madaniy targ'ibot tadbirlarini o'tkazishda Turkiyaning tegishli vakolatli idora va muassasalari bilan hamkorlik qiladi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: mamlakatimizning madaniy merosini targ'ib qiluvchi ko'rgazmalar, "Turkiya haftaligi" va "Turkiya yili" doirasida uyushtiriladigan tadbirlar va festivallar, turli madaniy tadbirlarda ishtirok etish, chet ellarda Turkiya tashqi siyosati bo'yicha konferensiyalar tashkil qilish, targ'ibotga oid hujjatli filmlar va nashrlar tayyorlash. Tashqi ishlar vazirligi bundan keyin ham Turkiyaning boy madaniy merosini butun insoniyat uchun bebaho boylik sifatida taqdim etishda davom etadi[6].

Mamlakat tashqi diplomatiyasida madaniy sohaning qanday muhimligini uning Tashqi ishlar vazirligi berib o'tgan yuqoridagi so'zlaridan bilib olishimiz mumkin. Sovuq urush davrida harbiy kuch va iqtisodiy sanksiyalar davlatlararo munosabatlarda muhim rol o'ynagan bo'lsa, sovuq urushdan keyingi davrda mamlakatlarning madaniy, tarixiy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan yumshoq kuch tushunchasi asta-sekin qattiq kuch o'rnini egallay boshladi. XX asrning so'nggi choragida ikki qutbli tizimga xos qurollanish va mafkuraviy kurash o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Shu yo'nalishda, davlatlar boshqa mamlakatlarga ta'sir o'tkazish uchun endi harbiy kuchdan emas, balki o'zlarining madaniyati, tili va qadriyatlaridan foydalanishga kirishdilar. Bu holat jahondagi qudratli davlatlarni o'z tashqi siyosatlarini qayta ko'rib chiqishga undadi. Yangi xalqaro tartibga moslashish maqsadida, Turkiya tashqi siyosatida muhim o'zgarishlar qildi va xorijiy yordam hamda madaniy diplomatiyani o'z ichiga olgan yondashuvni qabul qildi. Tashqi siyosatda madaniy diplomatiyadan samarali foydalanish qabul qiluvchi davlatlar tomonidan mavjud bo'lgan qarashlar va stereotiplarni yo'qotishda muhim rol o'ynadi. Shu nuqtai nazardan, madaniy diplomatiya xorijiy yordamni yanada samarali qilishda nihoyatda muhim rol o'ynaydi[7].

Sovuq urushdan keyingi davrda xalqaro munosabatlarda kuch omillari o'zgarib, harbiy va iqtisodiy bosim o'rnini madaniy va qadriyat asosidagi yumshoq kuch egallay boshladi. Bu jarayonda davlatlar o'z ta'sir doiralarini kengaytirish uchun qurol emas, balki madaniyat, til va tarixiy merosga tayanishni afzal ko'ra boshladilar. Turkiya ham bu yangi global tendensiyaga mos ravishda tashqi siyosatida madaniy diplomatiyani faol qo'llay boshladi va 2000-yillardan boshlab yumshoq kuch strategiyasini shakllantirdi. Madaniy diplomatiyaning tashqi siyosatda qo'llanilishi xorijda Turkiya haqida mavjud bo'lgan salbiy qarashlarni yo'qotishga xizmat qilib, xorijiy yordamning samaradorligini oshirdi.

Demak, bugungi kunda madaniy diplomatiya nafaqat Turkiyaning tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylangan, balki uning xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirishda ham muhim vosita sifatida qaralmoqda. 20-asrning oxirida global ta'sirlarning jadallashuvi, Berlin devorining qulashi va Sovet Ittifoqining parchalanishi kabi voqealar xalqaro munosabatlar kon'yunkturasida muayyan o'zgarishlarga olib keldi. Sharq va G'arb bloklari o'rtasidagi kuchlar kurashi davrida tarixiy aloqalari bilan faol munosabatlar o'rnata olmagan Turkiya, ayniqsa Sovet ta'sirining zaiflashuvi bilan Markaziy Osiyo hamda Bolqon mintaqasi, ya'ni Sharqiy Yevropa hududlarida yangi shakllanishlarga duch keldi. Yuzaga kelgan ushbu yangi vaziyat bilan birga rivojlangan hamkorlik va yordam jarayoni, ma'lum ma'noda, Turkiyaning sobiq Usmonli hududlariga yaqinlashuvi hamda ikki tomonlama aloqalarning yangilanishiga yo'l ochdi.

Sovet tuzumining yemirilishi bilan Turkiya ichki va tashqi siyosatda yangi harakatlar va nutqlar bilan yuzma-yuz keldi. Turg'ut O'zolning Bolqon va Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan

neo-usmoniyona yondashuvi, shuningdek, Refah partiyasining tashqi siyosatda islomiy mamlakatlarga qaratilgan siyosati Turkiyaning yangi tashqi siyosat yo'nalishlari qatoridan joy oldi. Sovuq urushdan keyin Turkiya tashqi siyosatda ilgari tutgan passiv yondashuvdan voz kechib, faol tashqi siyosat konsepsiyasini qabul qildi. Ayniqsa, 1992-yilda tashkil etilgan Turkiya Hamkorlik va Taraqqiyot Agentligi orqali Turkiya o'zining tashqi yordam va yumshoq kuch siyosatini institutsionalizatsiya qilishga harakat qildi.

Yangi tashqi siyosat qarashlari asosida loyihalar va faoliyatlarini kengaytirgan TIKa, Turkiya tashqi siyosatini amalga oshiruvchi muhim tashkilot sifatida xalqaro maydonda mamlakatning mavqeini mustahkamlovchi omilga aylandi. Biroq madaniy asosga emas, balki iqtisodiy asosga qurilgan ushbu struktura fonida, ayniqsa 2000-yillarda, Turk madaniyatini turkiy respublikalar va boshqa mintaqalarda yoyish maqsadida madaniy markazlar ochilishi zarurat sifatida qarala boshlandi. Ana shu sharoitda 2007-yil Yunus Emre Jamg'armasi tashkil etildi va Anqarada rasman faoliyat boshladi.

Yunus Emre instituti tomonidan o'quv dasturlari va darsliklarning har ikki mamlakatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi esa bu tashabbusning chuqur o'ylangan va professional tarzda yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi. Umuman olganda, bu loyiha til va madaniyat orqali xalqaro do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashning yorqin timsolidir. Bu loyiha Turkiyaning yumshoq kuch siyosatini amaliyotda namoyon etmoqda. Til orqali madaniyatni targ'ib qilish ikki davlat o'rtasida yaqinlikni oshiradi. Yosh avlodda Turkiyaga nisbatan ijobiy munosabat shakllanmoqda.

Bunday tashabbuslar uzoq muddatli strategik hamkorlik uchun poydevor yaratadi.

Turkiyaning tashqi siyosatida madaniy diplomatiya tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tarixiy va madaniy meros, strategik geografik joylashuv, til va urf-odatlar orqali Turkiya o'zining yumshoq kuch salohiyatini kuchaytirishga intilmoqda. Yunus Emre instituti, TIKa, YTB kabi muassasalar orqali turk madaniyati, san'ati, tili va qadriyatlarini dunyo bo'ylab targ'ib qilish madaniy diplomatiyaning asosiy vositalariga aylangan. Ayniqsa, turk diasporasi bilan madaniy aloqalarni mustahkamlash va xorijdagi avlodlarda milliy identitetni saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar Turkiyaning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Zamonaviy Turkiya Respublikasining tashqi siyosati tinchlik, diplomatiya va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Turkiya tarixan qo'shnilari va xalqaro hamjamiyat bilan yaxshi munosabatlarni rivojlantirishga asoslangan ko'p qirrali tashqi siyosat olib bormoqda. Turkiya tashqi siyosatining asosiy jihatlaridan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, Betaraflik va aralashmaslik siyosati, bunda Turkiya mintaqaviy va xalqaro mojarolarda betaraf pozitsiyani saqlab qolishni maqsad qilgan va nizolarni diplomatiya va muloqot orqali tinch yo'l bilan hal qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, Strategik hamkorlik siyosati, ushbu siyosat orqali Turkiya asosiy mintaqaviy va global kuchlar, jumladan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan strategik sheriklik o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Uchinchidan, Ko'p tomonlamalik diplomatiya, bu orqali Turkiya global muammolarni hal qilish va turli masalalar bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar va forumlarda faol ishtirok etadi.

To'rtinchidan, Gumanitar yordam va qochqinlarga yordam siyosati, bu siyosat orqali Turkiya gumanitar inqirozlarga javob sifatida muhtoj bo'lgan mamlakatlar va mintaqalarga yordam va qo'llab-quvvatlamoda va qochqinlar inqirozini, xususan, Suriya mojarosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Garakhanova N. Türkiye Cumhuriyeti'nde 100 Yılda Kültür Diplomasisi Gelişimi // İnterdisipliner Kültürel Araştırmalar Dergisi. – 2023. – Sayı: 64. – P. 210. – URL: <https://dergipark.org.tr/tr/pub/ikad/issue/80246/1362459>
2. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004. – P. 15..
3. Walker J. The Impact of Turkish Cultural Diplomacy in the Balkans // European Journal of Turkish Studies. – 2010. – № 11. – URL: <http://journals.openedition.org/ejts/4293>
4. Kaya A. Islamisation of Turkey's Foreign Policy through the Prism of the New Diaspora Policy: The Turkish Diaspora in Europe // Journal of Balkan and Near Eastern Studies. – 2015. – Vol. 17, no. 4. – P. 383–408.
5. Yilmaz Ş. Nation Branding and Turkey's Recent Foreign Policy: The Role of Cultural Diplomacy // Insight Turkey. – 2017. – Vol. 19, no. 1. – P. 144.
6. Promotion of Türkiye Abroad // Republic of Türkiye. Ministry of Foreign Affairs: [Official website]. – URL: <https://www.mfa.gov.tr/promotion-of-turkiye-abroad.en.mfa>.
7. Yağcı S. Cultural Diplomacy as an Important Foreign Aid Tools: The Case Study of Yunus Emre Institute // Aksaray Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi. – 2021. – Vol. 13, no. 4. – P. 151. – URL: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/2072927>